



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodik o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSİYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGİYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGİYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI.....	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR.....	326
Egamberdiev Abbasxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbas Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	



ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI

Galatov Abbas Alibekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti.

Xalilov Nurullo Xamidillayevich

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori PhD dotsent
University of economics and pedagogy.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyot sharoitida islomiy moliya institutlari hamda nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida strategik boshqaruv tushunchasi, uning islomiy moliya tamoyillari bilan uyg'unligi, shuningdek, nobank kredit tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarishdagi o'rni o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida Google Scholar, ScienceDirect va ResearchGate ilmiy ma'lumotlar bazalarida mavzuga oid 60 ta ilmiy ish o'rganilib, ulardan 27 tasi mazkur maqolada foydalanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya tamoyillari asosida amalga oshiriladigan strategik boshqaruv risklarni kamaytirish, etika asosida qarorlar qabul qilish hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, strategik boshqaruv, risk-menejment, nobank kredit tashkilotlari, etika, barqarorlik, risklarni boshqarish, sheriklik asoslari, islom moliyasi tamoyillari, innovatsion moliya, kapital.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of strategic management in Islamic financial institutions and non-bank credit organizations in the context of the modern economy. The study examines the concept of strategic management, its compatibility with the principles of Islamic finance, as well as its role in ensuring effective management of non-bank credit organizations. In the course of the literature review, 60 scholarly works related to the topic were examined using the scientific databases Google Scholar, ScienceDirect, and ResearchGate, of which 27 were utilized in this article. The findings indicate that strategic management based on Islamic finance principles contributes to risk reduction, ethics-based decision-making, and the achievement of long-term sustainability.

Key words: Islamic finance, strategic management, risk management, non-bank credit organizations, ethics, sustainability, partnership principles, Sharia principles, innovative finance, capital.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы стратегического управления в исламских финансовых институтах и небанковских кредитных организациях в условиях современной экономики. В ходе исследования рассмотрено понятие стратегического управления, его соответствие принципам исламских финансов, а также его роль в обеспечении эффективного управления деятельностью небанковских кредитных организаций. В процессе анализа научной литературы в базах данных Google Scholar, ScienceDirect и ResearchGate было изучено 60 научных работ по данной тематике, из которых 27 использованы в статье. Результаты исследования показывают, что стратегическое управление, основанное на принципах исламских финансов, способствует снижению рисков, принятию этически обоснованных управленческих решений и обеспечению долгосрочной устойчивости.

Ключевые слова: исламские финансы, стратегическое управление, управление рисками, небанковские кредитные организации, этика, устойчивость, риск-менеджмент, основы партнерства, принципы шариата, инновационные финансы, капитал.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda moliya tizimlarining rivojlanishi globallashuv, texnologik innovatsiyalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy talablar ta'sirida uzluksiz o'zgarib bormoqda. Shu kontekstda muqobil moliyalashtirish tizimlari — foizsiz, aktivga asoslangan, adolatli va ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirilgan moliyaviy amaliyotlarni mujassamlashtiruvchi model sifatida dunyo miqyosida keng e'tirof etilmoqda. Foizsiz moliyalashtirishga asoslangan banklar, qimmatli qog'ozlar bozori, sug'urta mexanizmlari hamda nobank kredit tashkilotlari (mikrokredit, lizing, faktoring va boshqalar) aholi va biznes subyektlari uchun muqobil moliyaviy xizmatlarni taqdim etmoqda.



Nobank kredit tashkilotlari (NKT) — bank tizimidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar sifatida, ayniqsa kichik va o'rta biznes hamda aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Ular muqobil moliyalashtirish tamoyillari asosida faoliyat yuritish jarayonida strategik boshqaruvning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashi lozim.

Jahon moliya bozorlarida muqobil moliyalashtirish sektorining jadal rivojlanib borayotgani global iqtisodiy tizimning diversifikatsiyalashuvi hamda barqaror moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganidan dalolat beradi. An'anaviy moliya tizimi bilan parallel ravishda shakllanayotgan ushbu moliyaviy model o'zining foizsiz, aktivga asoslangan va sheriklik tamoyillariga tayangan yondashuvi orqali iqtisodiyotda yangi paradigmalarning vujudga kelishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy tizimning ajralmas qismi hisoblangan nobank kredit tashkilotlari moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, kichik biznes subyektlari va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nobank sektorining iqtisodiyotdagi o'rni tobora ortib borayotgan sharoitda, ushbu tashkilotlarning boshqaruv mexanizmlarini strategik asosda shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada muqobil moliyalashtirish tizimlari hamda nobank kredit tashkilotlarining nazariy asoslari, strategik boshqaruvning ilmiy konsepsiyalari va ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlari yoritib beriladi.

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi moliya sohasida ham o'z aksini topmoqda. Ushbu jarayonda muqobil moliyalashtirish tizimlari — etikaga, adolatga hamda real iqtisodiy faoliyatga asoslangan model sifatida keng e'tibor qozonmoqda. Ayniqsa, an'anaviy moliyaviy tizimlarda yuzaga keladigan moliyaviy inqirozlar va yuqori risk darajasi fonida ko'plab davlatlar foizsiz va aktivga asoslangan moliyaviy mexanizmlarga murojaat qilmoqda.

O'zbekiston ham mazkur global tendensiyaga qo'shilib, muqobil moliyalashtirish elementlarini milliy moliya tizimiga integratsiya qilish yo'lida dastlabki qadamlarni tashlamoqda. Bu jarayonda nobank kredit tashkilotlari — mikromoliya tashkilotlari, kredit uyushmalari va lizing kompaniyalari — muhim institutsional bo'g'in sifatida maydonga chiqmoqda. Ularning faoliyatini strategik jihatdan boshqarish, ayniqsa muqobil moliyalashtirish tamoyillari doirasida amalga oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda ijtimoiy javobgarlikni oshirish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida islomiy moliyaning nazariy asoslari, islomiy moliyaviy xizmatlar bozori, islom moliyasiga mos moliyaviy operatsiyalarni joriy etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, risk-menejment tizimi hamda islomiy moliya institutlarining rivojlanish istiqbollari bo'yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, M. Alimov, B. Ergashev, D. Sultonov, Sh. Yusupov, Z. Xasanboyeva va A. Abdullayevlarning ilmiy izlanishlarida islomiy moliya mexanizmlarining mohiyati, islom moliyasiga mos bank va nobank kredit tashkilotlari xizmatlarini tashkil etish, boshqaruv tamoyillari, risklarni kamaytirish mexanizmlari hamda sektorning institutsional rivoji masalalari o'z aksini topgan¹. Ushbu tadqiqotlarda islomiy moliyaviy institutlarning shakllanishi, ularni tartibga solish mexanizmlari, biznes-modellar va boshqaruv tizimlarining rivojlanishi, shuningdek, islom moliyasiga muvofiqlik mezonlari yoritib berilgan.

Shu bilan birga, islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi nobank kredit tashkilotlarining strategik boshqaruv tizimini shakllantirish, islom moliyasiga mos boshqaruv strukturasini yaratish, strategik baholash mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, risk-menejment va monitoringning integrallashgan modelini ishlab chiqish masalalari O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida yetarlicha yoritilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirish hamda amaliyot uchun muhim bo'lgan ilmiy yechimlarni ishlab chiqish zarurati mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida islomiy moliya institutlari hamda nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks ilmiy-metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimlilik, mantiqiylik va ilmiylik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv qo'llanilib, strategik boshqaruv tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlari faoliyatidagi o'ziga xos jihatlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv strategik boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy

1 Alimov M. Islomiy moliya: nazariya va amaliyot. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020. — 210 b. Ergashev B. Moliyaviy boshqaruv va islomiy bank xizmatlari. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. — 198 b. Sultonov D. Bank tizimida risklarni boshqarish. — Toshkent: TDIU, 2019. — 164 b. Yusupov Sh.

Nobank kredit tashkilotlari boshqaruvi va rivojlanish omillari. — Toshkent: TDIU, 2021. — 152 b. Xasanboyeva Z.

Islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. — 176 b..

Abdullayev A. Islomiy moliyalashtirish mexanizmlari va ularning joriy etilish xususiyatlari. — Toshkent: Moliya, 2021. — 134 b.



muhitdagi o'zgarishlarga moslashuv jarayonini ochib berishga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqotda tizimli tahlil usuli qo'llanilib, islomiy moliya va nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvning tarkibiy elementlari — strategik maqsadlar, boshqaruv mexanizmlari, risklarni boshqarish, institutsional muhit hamda tartibga solish mexanizmlari — yagona tizim sifatida o'rganildi. Mazkur usul strategik qarorlar qabul qilish jarayonining ichki mantiqiy bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Nazariy asoslarni shakllantirishda taqqoslama (komparativ) tahlil usulidan foydalanilib, an'anaviy moliyaviy institutlar bilan islomiy moliya hamda nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvning umumiy va farqli jihatlari solishtirildi. Ushbu yondashuv orqali islom moliyasi tamoyillariga asoslangan boshqaruv strategiyalarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullari qo'llanilib, alohida ilmiy qarashlar va nazariy konsepsiyalar asosida umumiy xulosalar chiqarildi hamda umumiy nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, islomiy moliya va nobank kredit tashkilotlariga xos strategik boshqaruv tamoyillari aniqlab olindi.

Shuningdek, mantiqiy-tahliliy usul yordamida yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning strategik boshqaruv, islomiy moliya va moliyaviy institutlar faoliyatiga oid ilmiy ishlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar — IFSB, AAOIFI va boshqalar — tomonidan ishlab chiqilgan konseptual hujjatlar o'rganildi hamda umimlashtirildi.

Empirik ma'lumotlardan foydalanish zarurati bo'lmagan nazariy tadqiqot sifatida mazkur maqolada abstraktlashtirish va umimlashtirish usullari orqali strategik boshqaruvning nazariy modeli shakllantirildi hamda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida uni qo'llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida islomiy moliya institutlari hamda nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruv an'anaviy moliyaviy institutlarga nisbatan o'ziga xos nazariy va institutsional xususiyatlarga ega. Ushbu farqlar, avvalo, moliyaviy faoliyatning islom moliyasi tamoyillariga asoslanishi, foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarining ustuvorligi hamda risk va foydaning adolatli taqsimlanishi bilan izohlanadi.

Tizimli tahlil natijalariga ko'ra, islomiy moliya institutlarida strategik boshqaruv uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, qisqa muddatli foyda maksimallashtirishdan ko'ra ijtimoiy mas'uliyat, etik me'yorlar hamda real sektor bilan uzviy bog'liqlikni asosiy ustuvorlik sifatida belgilaydi. Ushbu holat strategik qarorlar qabul qilish jarayonida risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Tizimli tahlil natijalari asosida strategik boshqaruv elementlarining tavsifi²

Tahlil elementi	Islomiy moliya institutlari	Nobank kredit tashkilotlari	Strategik ahamiyati
Strategik maqsadlar	Barqaror rivojlanish, islom moliyasiga muvofiqlik, ijtimoiy adolatni ta'minlash	Bozor ulushini kengaytirish, foydalilikni oshirish, moslashuvchanlik	Uzoq muddatli strategik yo'nalishlarni belgilaydi
Boshqaruv modeli	Islom moliyasi kengashi ishtirokidagi ko'p darajali boshqaruv	Markazlashgan yoki moslashuvchan boshqaruv modeli	Qaror qabul qilish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi
Moliyaviy mexanizmlar	Foizsiz, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish	Kreditlash va muqobil moliyalashtirish shakllari	Risk va foydaning taqsimlanish xususiyatlarini belgilaydi
Risklarni boshqarish	Risk va foydani taqsimlashga asoslangan ehtiyotkor yondashuv	Bozor va kredit risklariga sezgirlik yuqori	Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash omili
Institutsional muhit	Qattiq normativ va islom moliyasi talablari asosida tartibga solinadi	Tartibga solish darajasi nisbatan past yoki moslashuvchan	Strategik qarorlar erkinligini belgilaydi
Korporativ boshqaruv	Shaffoflik va etik me'yorlarga asoslangan	Boshqaruv standartlari turlicha	Investorlar va mijozlar ishonchini oshiradi
Innovatsiyalar va texnologiyalar	Fintex va raqamli xizmatlar ehtiyotkorlik bilan joriy etiladi	Innovatsiyalarni tez joriy etish imkoniyati yuqori	Raqobatbardoshlikni oshiradi
Ijtimoiy mas'uliyat	Strategik boshqaruvning muhim tarkibiy qismi	Ikkinchi darajali yoki cheklangan	Barqaror rivojlanish va reputatsiyani ta'minlaydi
Moslashuvchanlik darajasi	Nisbatan past, ammo barqaror	Yuqori, ammo riskli	Tashqi muhit o'zgarishlariga javob berish tezligi



Muhokama jarayonida aniqlanishicha, nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruv nisbatan moslashuvchan bo'lib, bozor kon'yunkturasi tez moslasha olish xususiyatiga ega. Ushbu tashkilotlar innovatsion moliyaviy mahsulotlar, raqamli texnologiyalar hamda muqobil moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga intiladi. Biroq strategik boshqaruvning yetarli darajada institutsional asoslanmaganligi hamda risklarni boshqarish mexanizmlarining zaifligi ularning uzoq muddatli barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Taqqoslama tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya institutlarida strategik boshqaruvning asosiy ustunligi islom moliyasiga muvofiqlikni ta'minlovchi nazorat mexanizmlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlar ayrim holatlarda strategik qarorlar qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Nobank kredit tashkilotlarida esa bunday cheklovlar kam bo'lib, strategik moslashuvchanlik yuqori, biroq moliyaviy barqarorlik darajasi nisbatan past bo'lish ehtimoli mavjud (2-jadval).

2-jadval. Islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvning taqqoslama tahlili³

№	Taqqoslash mezonlari	Islomiy moliya institutlari	Nobank kredit tashkilotlari
1	Strategik boshqaruvning asosiy maqsadi	Barqaror rivojlanish, islom moliyasiga muvofiqlik, ijtimoiy adolat	Daromadlilikni oshirish, bozor ulushini kengaytirish
2	Strategik rejalashtirish	Uzoq muddatli, barqarorlikka yo'naltirilgan	Qisqa va o'rta muddatli, moslashuvchan
3	Boshqaruv tuzilmasi	Islom moliyasi kengashi ishtirokidagi ko'p bosqichli model	Markazlashgan yoki soddalashtirilgan model
4	Moliyaviy faoliyat tamoyillari	Foizsiz, real aktivlarga asoslangan	Kreditlash va muqobil moliyalashtirish
5	Risklarni boshqarish	Risk va foydani taqsimlashga asoslangan	Kredit va bozor risklari yuqori
6	Institutsional tartibga solish	Qat'iy normativ-huquqiy va islom moliyasi talablari	Nisbatan moslashuvchan tartibga solish
7	Qaror qabul qilish tezligi	Nisbatan sekin, ehtiyotkor	Tezkor va moslashuvchan
8	Innovatsiyalarni joriy etish	Ehtiyotkorlik bilan, islom moliyasiga moslashtirib	Tez va faol joriy etiladi
9	Ijtimoiy mas'uliyat	Strategik boshqaruvning ajralmas qismi	Ikkinchi darajali omil
10	Uzoq muddatli barqarorlik	Yuqori	Nisbatan past, riskga bog'liq

Tadqiqot natijalari asosida islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruv samaradorligi institutsional muhit, tartibga solish mexanizmlari hamda menejment kompetensiyalariga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Xususan, normativ-huquqiy bazaning aniqligi, korporativ boshqaruv standartlarining joriy etilishi hamda risklarni kompleks boshqarish tizimlarining mavjudligi strategik maqsadlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, muhokama natijalariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlari islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlarining strategik boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Fintex texnologiyalarining joriy etilishi strategik rejalashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish hamda operatsion samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Biroq raqamli risklar va kiberxavfsizlik masalalari strategik boshqaruvning yangi muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida islomiy moliya institutlari hamda nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvning nazariy asoslari o'ziga xos va murakkab tizim ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida strategik boshqaruvning mazmuni, uning institutsional, tashkiliy va funksional jihatlarini tizimli hamda taqqoslama tahlil asosida yoritildi.

3 Muallif ishlanmasi



Tahlil natijalariga ko'ra, islomiy moliya institutlarida strategik boshqaruv islom moliyasi tamoyillariga muvofiqlik, uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Nobank kredit tashkilotlarida esa strategik boshqaruvning asosiy ustuvorligi moslashuvchanlik, tezkorlik va bozor talablariga mos ravishda faoliyat yuritish hisoblanadi, biroq mazkur yondashuv uzoq muddatli risklarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida strategik boshqaruv samaradorligi institutsional muhit, normativ-huquqiy tartibga solish, korporativ boshqaruv darajasi hamda menejment kompetensiyalariga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari esa islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlari strategik boshqaruvining yangi bosqichini shakllantirib, samaradorlikni oshirish bilan birga, yangi turdagi risklarni ham yuzaga keltirmoqda. Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy iqtisodiyotda samarali strategik boshqaruv modeli sifatida islom moliyasi tamoyillari, bozor mexanizmlari va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida islomiy moliya institutlari hamda nobank kredit tashkilotlarida strategik boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Strategik rejalashtirishni institutsional mustahkamlash. Islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlarida uzoq muddatli strategik rejalashtirishni institutsional darajada mustahkamlash, strategik hujjatlarni ishlab chiqishda risklarni boshqarish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash lozim.

Korporativ va islom moliyasi boshqaruvini integratsiyalash. Islomiy moliya institutlarida islom moliyasi kengashi faoliyatini korporativ boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashtirish orqali strategik qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Risklarni kompleks boshqarish tizimini joriy etish. Nobank kredit tashkilotlarida kredit, bozor va operatsion risklarni kamaytirishga qaratilgan kompleks risk-menejment tizimlarini strategik boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllantirish zarur.

Raqamli transformatsiyani strategik darajada qo'llab-quvvatlash. Fintex va raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ularning strategik maqsadlarga muvofiqligini ta'minlash, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoyalash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kadrlar salohiyatini oshirish. Strategik boshqaruv sohasida yuqori malakali menejerlar va mutaxassislarni tayyorlash, ularning islomiy moliya hamda zamonaviy menejment bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Tartibga solish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Islomiy moliya institutlari va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish, shaffoflik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". — Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobot. — Toshkent, 2023.
3. Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish konsepsiyasi. — Toshkent, 2021.
4. Shodiyev H., Habibullayev I. Statistika. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 221–228-betlar.
5. Abduqodirov A.A. Moliyaviy menejment. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 143–150-betlar.
6. Xudoyberdiyev S.S. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini boshqarish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 87–94-betlar.
7. To'ychiyev A. Agrobiznesni innovatsion rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishning metodologik asoslari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2023. — 1(11–12).
8. Islomiy moliya bo'yicha ilmiy-amaliy qo'llanma (O'zbekiston Bank-moliya akademiyasi). — Toshkent, 2022. — 66–73-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>